

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABELKOSIMOVA MUXARRAM XAMIDOVNA

**TEXNIK MUTAXASSISLIK MAGISTRANTLARINI ILMIY TADQIQOT
FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abelkosimova Muxarram Xamidovna

Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani misolida)..... 3

Абелкосимова Мухаррам Хамидовна

Совершенствование методики подготовки магистрантов технических специальностей к научно исследовательской деятельности (на примере дисциплины “Методология научных исследований”) 25

Abelkosimova Mukharram Khamidovna

Improving the methodology for preparing masters of technical specialties for research activities (On the example of the course Research Methodology)..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABELKOSIMOVA MUXARRAM XAMIDOVNA

**TEXNIK MUTAXASSISLIK MAGISTRANTLARINI ILMIY TADQIQOT
FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped1233 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammqi.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Abdulxalim Xamidovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rustamov Raxmatali Murodovich
texnika fanlari doktori, professor

Boltayeva Muxayyo Lutfillayevna,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.90.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160103, Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: nammqi_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: nammqi_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025- yil "____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.G.Bayboboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

A.A.Qahharov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.f.d., dotsent

O.S.Abdullayeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida yoshlarning yaratuvshanlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limni raqamli transformatsiya sharoitida dunyoda texnik yo'nalishidagi magistrnlarni ilmiy faoliyatga tayyorlash iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan jamiyat talabi tobora ortib bormoqda. Ta'lim – bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish”¹ dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu, ta'lim tizimida magistratura mutaxassisligining ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda magistratura nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni, balki umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi doimiy o'zgarib turadigan, jamiyat talablariga javob beradigan kelajakdagi olimlarni tayyorlashga qaratilgan ta'lim bosqichi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda magistraturada o'quv jarayoni sifatini ta'minlash, yuqori kasbiy malaka bilan bir qatorda, ilmiy vazifalarni belgilash, tadqiqotlarni rejalashtirish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot natijalarini baholash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni o'qitishda yangi usullarini tadqiq qilishmoqda, alohida kurslarda o'qitiladigan muzokarali forumlar uchun kraudsorsing texnologiyalari qo'llanilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'limdan keyingi ta'lim sifati va iqtisodiyotimizni turli sohalarini rivojlanishi ko'p jihatdan texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorgarligi bilan bog'liqliqdir. Demak, texnik yo'nalishdagi magistratura bitiruvchilarda ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasi ilm-fan va iqtisodiyotimizni yangi bosqichlarga olib chiqishda muhim omillardan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin. So'nggi yillarda zamonaviy talablar asosida magistratura tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasidagi vazifalar, amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, jumladan, magistraturaning huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta'minoti mustahkamlandi, magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Shular bilan bir qatorda, magistratura faoliyatini ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalarni takomillashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga 2024-yil 25-maydagi “Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

to'g'risida" farmonlarida hamda 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish" to'g'risida" PQ-279-son qarorida belgilangan davlat dasturidagi mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot faoliyatga doir muammolar bo'yicha A.Abduqodirov, B.Adizov, R.Allayarova, U.Begimqulov, R.Djurayev, A.Azizqulov, Z.Davronov, Z.Isaqova, R.Ishmuxamedov, A.Maxmudov, I.Saifnazarov, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, N.Shermuxamedova, I.Askarov, J.Turamov, R.Tillayeva va boshqa pedagog olimlar tadqiqotlar o'tkazgan,

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida olimlaridan G.Altshuller, V.Andreyev, D.Bogoyavlenskaya, V.Baydenko, G.Ball, V.Bespalko, A.Verbiskiy, V.Davidov, Ye.Ilin, I.Zimnyaya, M.Klarin, I.Podlasiy, P.Pidkasistiy, A.Xutorskiy kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijlii R.Beghetto, T.Lubart, M.Runco, R.Sawyer, R.Sternberg, A.Subetto, M.Spencer, E.Torrance, W.Hutmacher, S.Whiddett va shu kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ilmiy, ijodiy hamda ilmiy-ma'rifiy metodikasining mazmuni, uning tuzilmasi, tarkibiy qismlari tizim sifatida maxsus o'rganilmagan. Magistratura ta'lim bosqichida talabalarni ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari mavjudligiga qaramay hozirga qadar magistrnlarni ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlashning yechimlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Magistratura ta'lim bosqichida talabalarni ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari mavjudligiga qaramay hozirga qadar magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlashning innovasion yechimlari yetarli darajada o'rganilgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnik mutaxassislik magistrantlarini ta'lim mazmunining tarkibiy qismi sifatida ilmiy tadqiqot faoliyat tajribasini shakllantirish muammosining nazariy jihatlarini tahlil qilish va ularni ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlashga ta'sir etuvchi didaktik omillarni aniqlash;

texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasini mazmuni, tuzilmasi va bosqichlarini takomillashtirish;

texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik modelini takomillashtirish va talabalarda ilmiy tadqiqot faoliyat tajribasini samaradorligini ta'minlaydigan metodik sharoitlarning kreativlik jihatini optimal hisobga olish asosida takomillashtirish;

texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasini samaradorligini aniqlash va ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish jarayonlari belgilanib, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Jizzax politexnika instituti, Namangan muhandislik qurilish instituti professor-o'qituvchilari va magistrarlari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnik mutaxassislik magistrantlarining ilmiy faoliyatdagi muammolarni nazariy yechimlariga oid algoritmi(izlanish, yo'naltirish, tizimlilik, texnologik va umumlashtirish) mazmunan, metodik, didaktik qiyosiy tahlil hamda ilmiy tadqiqot faoliyatdagi natijadorlikka ta'sir etuvchi omillar asosida takomillashtirilgan;

texnika mutaxassislik magistrantlarining ilmiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, tuzilmasi (motivatsion, kognitiv, reflektiv), tadqiqotning tarkibiy qismlariga (bilishga qiziqish, empirik va nazariy bilimlarga egalik, o'z-o'zini tahlil qilish va baholash) oid ko'nikmalarini o'zlashtirishga ustuvorlik berish asosida motivatsion-yo'naltirish, tahliliy-prognostik, kasbiy-izlanish, reflektiv-baholash bosqichlarini belgilash orqali takomillashtirilgan;

texnika mutaxassislik magistrantlarining ilmiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik modelining komponentalari loyihalash, talabalarni mashg'ulotlarga ijodiy yondashuvini (kombinatsion, innovatsion va tadqiqiy ijodkorlik) ta'minlash, mashg'ulotlarning borishi va natijalarini monitoring qilish, talabalarda ilmiy tadqiqot faoliyat tajribasini shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan metodik sharoitlarning kreativlik jihatini optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorligini reproduktiv, variativ, qisman-izlanuvchi va izlanuvchi-kreativ indikatorlar orqali aniqlangan hamda ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini maqsadli, mazmunli va

faoliyatli amaliy ko'nikmalarini blok-modulli yondashuv asosida o'quv-metodik ta'minoti va mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnik mutaxassislik magistrantlarini "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani misolida ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash bosqichlari aniqlangani hamda har bir bosqich uchun talablar, rivojlanish mezonlari ishlab chiqilgan;

"Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish" o'quv qo'llanmani ishlab chiqilgan;

texnik mutaxassislik magistrantlarini "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani misolida ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan auditoriya va mustaqil ta'lim uchun ijodiy topshiriqlar ishlab chiqilgan;

texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorligini baholovchi mezonlar diagnostik manbalari ishlab chiqilgan;

texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan tadqiqotni samaradorligini aniqlashga oid taklif va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoga texnik, psixologik-pedagogik, metodik yondashish hamda texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirishda mamlakatimiz va xorijlik olimlar tajribalariga asoslanilgani; tadqiqot vazifalariga mos metodlarning tanlanganligi; tahlil va tavsifning miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi. Dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodik yondashuv va usullar rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnik mutaxassislik magistrantlarini tayyorlashning mavjud holatini qiyosiy, tizimli tahlil qilinganligi, "Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot kompetensiyasi" tushunchasi tuzilmaviy va mazmunli chuqurlashtirish natijasida uning komponentlari belgilanganligi, "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani misolida ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorligiga ta'sir etuvchi didaktik omillarni aniqlanganligi, texnik mutaxassislik magistrantlarini o'quv jarayonida ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash didaktik modeli kompetentlik yondashuviga asoslangan holda takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash bosqichlari "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani misolida aniqlangani va har bir bosqich uchun talablar, rivojlanish mezonlari ishlab chiqilganida; "Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish" o'quv qo'llanmani ishlab chiqilganligida, texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorligini baholovchi diagnostik vositalarni ishlab chiqilganida, texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy

tadqiqot faoliyatiga yoʻnaltirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasi va ishlab chiqilgan nazariy-metodologik va amaliy takliflar asosida:

texnik mutaxassislik magistrantlarining ilmiy faoliyatdagi muammolarni nazariy yechimlariga oid algoritmi (izlanish, yoʻnaltirish, tizimlilik, texnologik va umumlashtirish) mazmunan, metodik, didaktik qiyosiy tahlil hamda ilmiy tadqiqot faoliyatdagi natijadorlikka taʼsir etuvchi omillar asosida takomillashtirishga oid takliflar “Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish” nomli oʻquv qoʻllanmasi mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrugʻi, 391322-raqamli guvohnomasi). Natijada texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatini metodik tizimini takomillashtirishga qaratilgan nazariy bilimlarini oshirishga doir ilmiy asoslangan tahliliy materiallar hamda gʻoyalar oʻquv qoʻllanmada oʻz aksini topgan;

texnika mutaxassislik magistrantlarining ilmiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, tuzilmasi (motivatsion, kognitiv, reflektiv), tadqiqotning tarkibiy qismlariga (bilishga qiziqish, empirik va nazariy bilimlarga egalik, oʻz-oʻzini tahlil qilish va baholash) oid koʻnikmalarini oʻzlashtirishga ustuvorlik berish asosida motivatsion-yoʻnaltirish, tahliliy-prognostik, kasbiy-izlanish, reflektiv-baholash bosqichlarini belgilash orqali takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar Oʻzbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-sonli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy koʻnikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari loyihasida foydalanildi (2024-yil 20 uyuldagi №04/11-5717-raqamli maʼlumotnoma); Natijada loyihaaning “Ijtimoiy pedagogik loyihalashtirishning innovatsion usullari” qismi ilmiy maʼlumotlar bilan boyigan;

texnika mutaxassislik magistrantlarining ilmiy faoliyatga tayyorlashga yoʻnaltirilgan pedagogik modelning komponentalari loyihalash, talabalarni mashgʻulotlarga ijodiy yondashuvini (kombinatsion, innovatsion va tadqiqiy ijodkorlik) taʼminlash, mashgʻulotlarning borishi va natijalarini monitoring qilish, talabalarda ilmiy tadqiqot faoliyat tajribasini shakllantirish samaradorligini taʼminlaydigan metodik sharoitlarning kreativlik jihatini optimallashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish” nomli oʻquv qoʻllanmasi mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrugʻi, 391322 raqamli mualliflik guvohnomasi). Natijada magistrnlarni ilmiy tadqiqot faoliyati diagnostik ishlarni joriy etilishda oʻquv jarayonini va bajarilayotgan magistrlik dissertatsiya ishlarini sifatini oshirilishiga imkon berdi.

texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorligini reproduktiv, variativ, qisman-izlanuvchi va izlanuvchi-kreativ indikatorlar orqali aniqlangan hamda ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini maqsadli, mazmunli va faoliyatli amaliy koʻnikmalarini blok-modulli yondashuv asosida oʻquv-metodik taʼminoti hamda mutaxassislik fanlarini oʻqitish metodikasi takomillashtirilgan oid

ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 10-sentabrdagi 4/17-4/4-16346-sonli ma'lumotnomasi). Natijada texnik mutaxassislik magistrantlarining ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan, 3 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan va 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalar uchun guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy matni 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning ilmiy-metodologik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda magistratura ta'lim tizimining mavjud holatini qiyosiy tahlili asosida texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirishning nazariya va amaliyotdagi holati talqin etilgan, texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodika tizimining mahalliy va xorijiy tajribasini tahlili va ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga ta'sir etuvchi didaktik omillarni aniqlash haqida fikr yuritilgan.

Metodologiya – (yunoncha- “metodlar” haqida ta'limot) ijodiy jarayon sifatida ilmiy bilish yo'llari va vositalarining, ilmiy tadqiqot qonuniyatlarining, ularni taqqoslash va tizimlashtirish zamirida yuzaga kelgan. Demak, metodologiya ilmiy bilish faoliyatining mohiyati yo'llari va vositalarining nazariy muammolarini, shuningdek, ijtimoiy jarayon sifatida ilmiy tadqiqot qonuniyatlarini o'rganadi.

Magistrantlarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati ilmiy faoliyat metodologiyasini anglab olish uchun, avvalo, kirish tartibida ayrim nazariy jihatlar, asosiy kategoriyalar va tuchunshalar ustida mushohada yuritish kerak bo'ladi. Ushbu bob shu mavzuga bag'ishlanadi. Bu magistratura bosqichidagi

magistrantlarni ilmiy-ijodiy fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga, amaliy va nazariy tadqiqotlarni samarali olib borishga yo'naltiruvchi o'qitish tizimini modernizatsiya qilish jarayonidir.

Ilmiy ish- bu, avvalo, qat'iy rejali faoliyatdir. Garchi fanda tasodifiy kashfiyotlar qilinib tursa-da, lekin faqat rejali, zamonaviy vositalar bilan puxta qurollangan ilmiy tadqiqot tabiat va jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni oshish va teran bilishga imkon beradi. Shundan keyin dastlabki fikrning aniq maqsadni ko'zlab ishlashini davom ettirish, oldindan mo'ljallangan tadqiqot sxemasini aniqlashtirish, o'zgartirish, unga qo'shimshalar qilish jarayoni kechadi. Shu o'rinda tadqiqotimiz yuzasidan o'z *mualliflik ta'rifimizni* shakllantirdik.

Ilmiy tadqiqot "bu magistratura bosqichidagi talabalarni ilmiy-ijodiy fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga, amaliy va nazariy tadqiqotlarni samarali olib borishga yo'naltiruvchi o'qitish tizimini modernizatsiya qilish jarayonidir".

Ilmiy tadqiqot. Uning umumiy maqsadi quyidagi ehtiyojlarga javob beradigan nazariyani qurishdan iborat:

- 1) faktlarni tahlil etish, tasniflash va bir tizimga solish (sintez qilish);
- 2) tevarak atrof olamining aniq faktlarini talqin qilish va anglab olish;
- 3) yangi natijalarni oldindan ko'ra olish va anglash, hodisa rivojini bashorat qilish.

Bugungi kunda ko'plab olimlar ilm-fanning nazariy va amaliy masalalarini ilmiy asosda tadqiq etmoqdalar. Bizning nazarimizda nazariy g'oyalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kashfiyotlar yaratish va ixtirolar qilishda buyuk olimlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ilmiy tadqiqot jarayonida shaxs yoki jamoa jamiyat taraqqiyotini ilgarilashiga ta'sir qiluvchi yangilik yaratiladi.

Shuningdek, bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida olib borilayotgan tadqiqotchilik faoliyatining turlari tobora kengayib bormoqda.

Ta'lim jarayonida magistrantlar tomonidan olib boriladigan turli tadqiqot shakllari mavjud bo'lib magistrantlarni o'qitish jarayonida o'quv tadqiqot va ilmiy tadqiqot faoliyatlaridan keng qo'llanilmoqda. Bu ikki tadqiqot mazmuni, metodologiyasi va maqsadi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Shuning uchun ham qachonki, bu tamoyillar o'zaro uyg'unlikka ega bo'lsa, ilmiy-ijodiy faoliyatda muayyan yutuqlar qo'lga kiritiladi. Chunki fandagi har bir g'oya (asllik bo'lsa) insonning ijod mahsuli, ijod qilishi – kashf etish, shu kungacha mavjud bo'lmagan narsani yaratishi sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday yangilik muayyan ilmiy g'oyaning shakl, mazmun, uslub, paradigmal jihatlari bilan o'zidan avvalgi g'oyalarni takrorlamasligini, o'sha g'oyalar bilan yonma-yon qo'yganda, ulardan ijobiy o'ziga xosligi tufayli ajralib turishini taqozo etadi. Haqiqatan, ilmiy ijod jarayoni subyekt tomonidan atrof borliq narsalari va jarayonlarini amalda aniq, izchil va tadrijiy bilishga qaratilgan evristik faoliyat usulidir. Ayni shu ma'noda, faoliyat sifatida ilmiy ijod aniq maqsadlarni belgilash,

qarorlar qabul qilish, yo‘l tanlash, o‘z manfaatlarini ko‘zlash, mas’uliyatni tan olish sifatida namoyon bo‘ladi.

Zero, fanning mazmuni ilmiy nazariyalar, gipotezalar, modeldan iborat dunyoning manzarasi bilan cheklanmaydi, uning negizi taxminiy ilmiy omillar, empirik (tajribaviy) xulosalari, ilmiy bashorat (prognoz)laridan tashkil topadi. Ilmiy bashorat qonun, nazariya va gipotezalarning bilish funksiyasi sifatidagi ta’rifi va tasnifidan farqlanadi.

K.Tulenovanning ta’kidlashicha, “Ilmiy bashorat – bu o‘tmish va bugunning noma’lum hodisalari (narsalari, jarayonlari, qonunlari, dalillari va hok.) shuningdek, mashhur nazariyalar, qonunlar, gipotezalar asosidagi xulosa sifatida ilgari suriladigan kelajak hodisalariga nisbatan ular haqidagi taxminlardir”²

Xorijiy rivojlangan davlatlardagi texnik mutaxassislikning magistrlik Boloniya dasturi zamonaviy axborot jamiyatining talabi asosida o‘zgaruvchanlikka tez moslashuvchanlik qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Tasdiqlash mumkinki, texnik mutaxassislik magistantrlarini tayyorlashda ilmiy tadqiqot kompetensiyalarni rivojlantirish Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarda bosh mezon sifatida qaraladi. Xorijiy ta’lim amaliyotini tahlili texnik mutaxassislikdagi magistrantlarni tayyorlash tizimini quyidagi didaktik o‘ziga xosliklarni ajratib olish imkonini yaratadi.

Quyida ilg‘or xorijiy mamlakatlardagi magistratura ta’limining O‘zbekiston magistratura ta’lim tizimi bilan taqqoslama jadvali keltirilgan. Xorijiy davlatlarning texnik mutaxassislik bo‘yicha magistrantlarini tayyorlashning mazmuni va tuzilmasining tahlili, ushbu oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish va shakllantirishga qaratilganligi, “kompetentlik tayyorgarlik” va “bitiruvchining shaxsiy kompetentlik modeli” tushunchasini o‘z ichiga olganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z o‘rnida Boloniya jarayonining hujjatlarida aks ettirilgan asosiy tamoyilidir.

Kompetentlik yondashuv asosida texnik mutaxassislarni tayyorlash va ta’lim tizimini “bilimli” konsetsiyasidan kompetentlik konpetsiyasiga o‘tishni taqozo etadi va o‘z o‘rnida bu zamonaviy ta’lim muhitida ustunlik qiluvchi tendensiya hisoblanadi.

Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonini amalga oshirish uchun uning komponentlarini aniqlab olish zarur. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot faoliyatida texnik mutaxassislikdagi magistrantlarni tayyorlash sifatini oshirish uchun xizmat qiladigan omillarni keltirishimiz mumkin:

texnik yo‘nalishidagi magistrantlarning ilmiy tadqiqot kompetentligini oshiradigan va amaliyotga mo‘ljallangan ta’lim mazmuni, integrativ bilim, ko‘nikma, malakalarini ularni rivojlantirishga mos kelishi.

² Туленова К. Предвидение и реальность. – Ташкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007. – 45 с.

Xorijiy magistratura va O‘zbekiston magistratura ta’lim tizimlarining taqqoslama jadvali.

Ta’lim komponentlari	Xorijiy magistratura ta’lim muassasalarida	O‘zbekiston magistratura ta’lim muassasalarida
Ta’lim maqsadi	Mutaxassisning shaxsiy mustaqil ijodkorligini va magistrantning shaxsiy modeli asosida ilmiy tadqiqot kompetentligini shakllantirish. Chuqurlashtirilgan ilmiy va professional ixtisoslik.	Davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan talablarga asosan ta’lim jarayonini va ta’lim maqsadini belgilash.
Ta’lim mazmuni	Yagona davlat ta’lim standartlarining yo‘qligi. Har bir OTMda o‘zining o‘qitish dasturlari borligi. O‘quv fanlarning umumiy o‘rganiladigan soatlaridan 15-20%ini ijtimoiy-gumanitar fanlar tashkil qiladi. Mutaxassislik bilan bog‘liq tanlab olingan fanlar 80-85 % ni tashkil qiladi.	Yagona davlat ta’lim standartlari asosida o‘qitilishi. Fanlarning umumiy o‘rganiladigan soatlaridan 30-40%ni ijtimoiy-gumanitar fanlar tashkil qiladi. Mutaxassislik bilan bog‘liq tanlab olingan fanlar 60-70 % ni tashkil qiladi.
Ta’lim usullari, shakllar	Ta’limning 60-80%ko‘rsatkichi mustaqil ta’lim. Individual reja asosida ta’lim olish. Fanlarni tanlash huquqi, o‘qituvchi-maslahatchi.	Ta’limning 40-50% ko‘rsatkichini tashkil etadi mustaqil ta’lim. O‘quv guruhlari asosida ta’lim olish.
Texnologiyalari	Kreativ texnologiyalar	Kognitiv texnologiyalar
Ta’lim olish muddati	1 yildan 3 yilgacha	2 yil (ba’zi sohalarda 3 yil)
O‘qishga kirish talablari:	Bakalavr diplomi va portfolio zarur, ayrim mamlakatlarda suhbat yoki imtihonlar tashkillashtirilishi mumkin.	Kirish sinovlari
Ta’lim sifatini nazorat tizimi	Ta’lim natijalarini kompetentligining rivojlanganligi bilan o‘lchash, reyting tizimi, kredit tizimi	Bilim, ko‘nikma va malakalar asosida kompetensiyalarni baholash.Kredit modul tizimining kirib kelishi.
Boshqarish shakllari	Demarkazlashtirilgan boshqaruv. OTM moliyaviy va tashkiliy nuqtayi nazardan mustaqilligi	Markazlashtirilgan boshqaruv.
Ta’lim davridagi fanlar soni	4–6 ta majburiy fan, 6-8 ta tanlov fanlari (har bir semestrda 4-5 fan to‘g‘ri keladi).	14-16 majburiy fanlar (har bir semestrda 6-8 fan to‘g‘ri keladi).
Ta’lim semestrlarining davomiyligi va soni	2 semestrda 4 semestrgacha. Qisqa tezkor yozgi va qishqi semestrlar tashkil qilinishi mumkin, ularni davomiyligi – 14-18 hafta.	4 semestr. 20-22 o‘qish haftasi

Integrativ bilim, ko‘nikma va malakalar professional va tadqiqot kompetentligi asosida rivojlanadigan va shakllanadigan mustahkam baza hisoblanadi;

ijodiy yo‘naltirilgan vosita, ta’limni metodi va texnologiyasi, xuddi psixologik jihatlarni o‘z ichiga oluvchi sifatida (ijodkorlikka motivatsiya, mustaqil tashkil qilish, mustaqil rivojlanish, ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni va tizimli

rivojlanish va boshq.) xuddi shunday pedagogik mexanizmlar (integrativ o‘quv sohasida mazmunni bilib olishni chuqurlashtirish);

mustaqil topshiriqlarni mazmunini amaliy fundamental masalalarni yechishga yo‘naltirilganligi;

magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda fundamental tadqiqotlarni sifatini oshishi;

o‘quv jarayonida amaliyotga yo‘naltirilgan ijodiy topshiriqlardan foydalanish;

texnik yo‘nalishdagi magistrantlar kompetentligi rivojlanishi darajasini ta‘limning barcha bosqichlarida kompleks vosita va diagnostika shakllarini qo‘llagan holda uzluksiz monitoring qilish (og‘zaki va yozma imtihonlar, testlar o‘tkazish va boshq). Yuqorida ko‘rsatilgan pedagogik-psixologik sharoit asosida magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirishning quyidagi asosiy bosqichlarini keltirish mumkin:

texnik mutaxassislikdagi bitiruvchi magistrantlarning shaxs modelini yaratish;

texnik mutaxassislikdagi magistrantlarni tayyorlashning o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, magistrantlarning ta‘lim davrida ilmiy tadqiqot faoliyatini uzluksiz rivojlantirish mazmuni va tuzilmasiga yo‘naltirish;

integrativ bilimlarini shakllantirishda ta‘limning individuallashtirish va amaliyotga mo‘ljallanganligi bo‘yicha o‘quv-metodik majmualarning mazmuni va tuzilmasini takomillashtirish;



1-rasm. Texnik mutaxassis magistantrlarining ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish sifatlariga ta'sir etuvchi omillar.

kompetentlik tayyorgarlik bo‘yicha didaktik-matematik modelni rejalashtirish, tashkil qilish, auditoriyada va mustaqil baholashni o‘tkazish mexanizmini ishlab chiqish;

texnik yo‘nalishdagi magistrantlarni kompetentligini rivojlanish darajasini tuzilmasi va mazmunini mukammallashtirish. Olib borilgan tadqiqot natijasida texnik mutaxassis magistantrlarining ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish sifatlariga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagi bir nechta guruhlariga bo‘lishni lozim topdik: ijtimoy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, psixologik-pedagogik, metodik-texnologik, didaktik-metodologik va ma‘naviy-ma‘rifiy. Yuqorida sanab o‘tilgan masalalarni amaliy yechimi texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish ta‘lim mazmuniga, usullariga va texnologiyalariga kompetentlik yondoshuvni tatbiq qilish kerakligini bildiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyat metodikasiga tayyorlash metodik tizimi**” deb nomlanib,

unda texnik mutaxassislik magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda kompetensiyalarning tuzilmasi va mazmuni, ilmiy tadqiqot faoliyatida texnik mutaxassislikdagi magistrantlar tayyorlashning takomillashtirish modeli, ilmiy tadqiqot faoliyatida texnik mutaxassislikdagi magistrantlarni tayyorlash texnologiyasi va texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlik darajasini monitoring qiluvchi diagnostik tizimi aks ettirilgan.

Tadqiqotning muhim tushunchalarini aniqlash: “magistrantlarni tadqiqot faoliyati”, “magistrantlarni tadqiqot faoliyat metodikasiga tayyorgarligi” va “magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish jarayoni” Magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligi deganda, biz, bu faoliyat funksiyasini muvaffaqiyatli ta’minlovchi professional-muhim shaxsiy sifatlarga va tadqiqotni shakllanganlik darajasiga mos keluvchi bilimlarni, ko’nikmalarni natijasi hisoblangan metodologik ilmiy bilimlarni egallash va tadqiqot qidiruvlarini tashkil qilish bo’yicha maxsus-tashkillashtirilgan faoliyatni tushunamiz.

Kompetentlik esa magistratura ta’limi jarayonida turli professional masalalarni yechish tajribasini egallanganligini nazarda tutadi.


Ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishda magistrantlarning motivasion-muhim munosabatlarga yo’naltirilganligini, metodologik tadqiqotlarning bilim, ko’nikmalarining egallanganliklarini, tadqiqot faoliyatini natijadorligi va muvaffaqiyatini ta’minlovchi shaxsning professional-muhim sifatlarni rivojlantiruvchi jarayonini tushuniladi.

Magistrantlarning ilmiy tadqiqot kompetensiyalari tuzilmasi quyidagi kompetentlarni o’zida ifodalaydi: ehtiyoj, motiv, maqsad, harakat, operatsiya, sharoit. Uning muvaffaqiyatli bajarilishi bizning tadqiqotimizda aniqlangan motivasion baholash munosabatlari va tadqiqot faoliyatini o’z ichiga olgan metodologik bilim va taqiqot ko’nikmalari, tadqiqot faoliyatini muvaffaqiyatini ta’minlaydigan shaxsning professional-muhim sifatlari aks etadigan va uning ichki intellektual rivojlanishi va shaxsiy natijasi uning shaxsiy ta’limini yaxlitligi magistrantni tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini nazarda tutadi.

Ishlab chiqilgan model, barcha pedagogik modellar uchun an’anaviy xususiyatlardan tashqari (yaxlitlik, ochiqlik, moslashuvchanlik, dinamiklik, boshqaruvchanlik, o’zgaruvchanlik va boshqalar) magistrantning subyektiv tajribasiga diqqatni jalb qilish, tadqiqot faoliyatini faol rag’batlantirish bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot doirasida biz tomonimizdan oliy ta’limdagi magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash modeli takomillshatirildi. Model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: Ijtimoiy buyurtma: ilmiy tadqiqot faoliyat turlari bo’yicha malaka talablari asosida mutaxassislarni tayyorlash nazarda tutiladi. Shuningdek, bunda kasbiy standart talablarini ham e’tiborga olish lozim.

Maqsad: modelning asosiy yo’nalishlarini ta’lim muassasasida amalga oshirish maqsadini belgilashdan boshlanadi. Magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash talablari davlat standarti bilan belgilanadi; nafaqat zarur bilim va ko’nikmalar miqdori, balki mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini majmui bilan ham ifodalanadi.



2-rasm. Magistrantlarni ilmiy faoliyatga tayyorlashni funksional modeli.

Ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash muhim farqlovchi afzallik – bu batafsil rejalashtirilgan, mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog‘liq, diagnostik ravishda qo‘yilgan o‘quv maqsadi, unga erishish yo‘li va uning muvaffaqiyatini tekshirish usullarining tarkibiy qismlari tavsifidir.

Mazmun: ushbu blokda ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash uni amalga oshirish tamoyillari, metodologik yondashuvlar, tamoyillar, konsepsiyalar keltirilgan. Ta‘lim mazmuni ilmiy tadqiqot faoliyati asosida magistrantlarda malaka talablarida keltirilgan kasbiy va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, modulli ta‘limni amalga oshirishning didaktik ta‘minotini ishlab chiqishdan iborat. Tamoyillar. Faoliyatlilik tamoyili mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Ushbu modelning xususiyatlari natijani rejalashtirish (magistrantlarning ilmiy tadqiqotga tayyorligini shakllantirish jarayonida har bir yo‘nalishda natijani rejalashtirish), ishlab chiqarish qobiliyati (magistrlik dasturining o‘quv jarayonida modelni ishlab chiqish), ambivalensiya (nazariya va amaliyotning nisbati, ularning oqilona kombinatsiyasi ilmiy tadqiqotga tayyorlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshiradi), moslashuvchanlik (modelning magistraturaning kasbiy tayyorlash jarayonlariga moslashishi).


Texnik mutaxassislikdagi magistrantlarni tayyorlash tuzilmasini tahlili asosida ilmiy tadqiqot kompetensiyalarni rivojlantirishga mos keluvchi pedagogik texnologiyalarni tuzilmaviy kompetentlari aniqlandi.

Kouching texnologiyasining pedagogik mohiyati ta‘lim jarayonida talabaning shaxsiy va intellektual salohiyatini ochish, mustaqil fikrlash va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikka asoslangan o‘qitish strategiyalarini shakllantirishdan iborat.

Magistrantlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonida Kouching texnologiyasining asosiy maqsadi talabaning ichki salohiyatini ochish, o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Kouching jarayonida o‘qituvchi (coach) tayyor bilim beruvchi emas, balki magistrantni ilmiy izlanish faoliyatiga yo‘naltiruvchi, undovchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolni bajaradi. Magistrant esa ilmiy faoliyatning faol subyekti sifatida shakllanadi va faol ishtirokchi sifatida o‘z tadqiqot yo‘nalishini mustaqil aniqlaydi; O‘qituvchi yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi rolni bajaradi;

Natijalar jarayon davomida tahlil qilinadi, yakuniy baho faqat natijaga emas, magistrantning shaxsiy o‘sish dinamikasiga ham asoslanadi.

Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim jarayonida yaratilgan tashkiliy va didaktik sharoitlarga bog‘liqdir. Quyidagi jadvalda magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasiga xos sifatlar hamda ushbu sifatarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy shartlar va didaktik sharoitlar tizimli ravishda yoritilgan.



3-rasm. Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning rivojlantirishda “Kouching texnologiya”sidan foydalanish.

Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkiliy shartlar deganda, tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, tashkiliy-pedagogik, muhit va resurslarga oid shartlar, masalan: seminarlar, ilmiy jamoalar, treninglar, tadqiqot uchun zarur texnologiyalar, vaqt taqsimoti va boshqaruv kabi tashkiliy asoslar tushuniladi.

“Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyat metodikasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik tizimning samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobda texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyat metodikasiga tayyorgarlashga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi hamda tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan.

**Texnik mutaxassislik magistrantlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash s
shart-sharoitlari.**

Tadqiqotchilik sifati	Ilmiy tadqiqot faoliyatiga tashkiliy shartlar	Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantiruvchi didaktik sharoitlar
Ijodiy faollik	Ilmiy tadqiqot faoliyati bo'yicha tadqiqot ishlariga jalb etish	Innovatsion-pedagogik texnologiyalar (masalan, muammoli ta'lim) orqali tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniq belgilash ko'nikmasini rivojlantirish
Ijodiy mustaqillik	Ochiq ta'lim resurslari: Google Scholar, ERIC kabi elektron manbalar va platformalardan foydalanish imkoniyatini yaratish	Internet resurslaridan mustaqil foydalanish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, saralash va tahlil qilish jarayonini o'quv topshiriqlari orqali yo'lga qo'yish
Tadqiqot metodlarini qo'llash	Ilmiy tadqiqot faoliyatini (eksperiment, kuzatuv, so'rov, suhbat) va ularni amalga oshirish vositalari bilan tanishtirish	Padlet, Jamboard, Google Forms kabi raqamli vositalar yordamida tadqiqot metodlarini qo'llashga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarni tashkil etish
Motivatsion tadqiqotchilik faoliyati	Sun'iy intellekt vositalaridan (ChatGPT, Grammarly) tadqiqot jarayonida foydalanish, dolzarb muammolarni yechishga qiziqishni oshirish	Geymifikatsiya va raqamli loyihalar orqali tadqiqot natijalarini taqdim etish va muhokama qilish uchun motivatsion muhit yaratish
Refleksiv faoliyat	Magistrantlarga o'z tadqiqot faoliyatini baholash va tahlil qilish uchun onlayn refleksiya jurnallari, bloglar yuritish imkonini berish	O'z faoliyatini mustaqil boshqarish va natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan refleksiv topshiriqlar tizimini yaratish

Tajriba-sinov ishlari Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Jizzax politexnika instituti, Namangan muhandislik-qurilish institutlarida o'tkazildi va u quyidagi uchta bosqichni tashkil etdi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi. Tajriba-sinov ishlari birinchi bosqichi texnik mutaxassislikdagi magistrantlarni tayyorlashning mavjud tizimining sifatini baholash bo'yicha diagnostik masalalar, test topshiriqlari, so'rovnomalar ishlab chiqildi, respublikaning turli hududlaridagi oliy ta'lim tashkilotlarini tajriba-sinov sifatida tanlash, eksperimentning tayyorgarlik dasturini o'z ichiga olgan tashkiliy-metodik tadbirlar bilan boshlandi. Ushbu tajriba sinov ishlari bosqichida texnik mutaxassislikdagi magistrantlar tayyorlash mavjud tizimining holati o'rganildi. Texnik mutaxassislik magistrantlarini tayyorlashning mavjud sifatini baholash Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Jizzax politexnika instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti professor-o'qituvchilari va magistratura talabarlari o'rtasida anketa so'rovlari o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Magistrantlar tayyorlashning mavjud tizimini ilmiy faoliyatga qaratganligini o'rganish maqsadida quyidagi asosiy kriteriyalar tanlab olindi: o'quv-metodik majmualarning magistrantlarda ilmiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilganligi, auditoriya va mustaqil mashg'ulotlar mazmunini muammoliligiga qaratganligi va kreativligi, diagnostik vositalarni ijodkorlikni baholashga qaratilganligi.

Empirik tadqiqotdan olingan natijalarning statistik tahlili eksperimental guruhlardagi magistratura talabalarining sezilarli darajadagi psixologik-pedagogik o'zgarishlarini aniqlashga imkon berdi.

auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish vaqtida faollik o'smoqda(eksperimental guruhlarining jami talabalar sonini o'rtacha 54.5% ni tashkil qilmoqda, nazorat guruhlariga qaraganda 12.5% yuqori);

auditoriya mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning ijodiy potensialini rivojlanishi va faolligini shakllanishiga mos keluvchi kreativlikni o'sishi (o'rtacha 56.5%, nazorat guruhlarining o'rtasiga nisbatan 10% yuqori);

amaliyotga mo'ljallangan topshiriqlarni yechish tajribasini intensiv o'sishi kuzatilmoqda (o'rtacha 59.2% nazorat guruhlarining o'rtachasiga nisbatan 12.5% yuqori);

tadqiqotning ko'nikma va malakalari faol shakllanishi yuz bermoqda (o'rtacha 56.7% nazorat guruhlarining o'rtachasiga nisbatan 11% yuqori);

bilimlarni integratsiyalash qobiliyati oshmoqda (o'rtacha 58,5%, nazorat guruhlarining o'rtachasiga nisbatan 10,5% yuqori).

3-jadval.

Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida tayyorlanish natijalarining taqqoslama jadvali.

Guruhlar	Auditoriya mashg'ulotlari				Mustaqil mashg'ulotlar
	Ma'ruzalar	Seminarlar	Amaliyot	Laboratoriya ishlari	
Magistrantning faolligi (<i>guruh magistrantlarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida</i>)					
Tajriba	56%	66%	52%	45%	60%
Nazorat	45%	48%	40%	37%	45%
Magistrantlarning kreativligi					
Tajriba	51%	62%	54%	58%	72%
Nazorat	44%	42%	47%	54%	53%
Amaliyotga yonaltirilgan masalalarni yechish tajribasini egallash					
Tajriba	61%	57%	61%	60%	75%
Nazorat	43%	45%	48%	55%	55%
Tadqiqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish					
Tajriba	53%	54%	61%	57%	74%
Nazorat	43%	39%	49%	52%	56%
Integratsion bilimlar qobiliyati					
Tajriba	62%	63%	55%	54%	70%
Nazorat	39%	55%	53%	48%	50%

